



International Congress on Economics, Management and Business Studies

Hosted Online from New York, USA

Date: 23rd June , 2026

Website: <https://econferencia.com>

BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIDA EKOLOGIK TARBIYANI SHAKLLANTIRISH

Nurmatova Madina Odiljon qizi

Qo'qon DU v.b. dotsenti

Islomova Maxsudaxon Axrorjon qizi

Qo'qon davlat universiteti

Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi talabasi

Annotatsiya

Ushbu maqolada ekologik tarbiya haqida, uning vazifalari hamda boshlang'ich sinf o'quvchilarida ekologik ong, ekologik madaniyat va tabiatga mas'uliyatli munosabatni shakllantirishning ahamiyati yoritilgan. Kichik maktab yoshidagi bolalarning psixologik xususiyatlaridan kelib chiqqan holda, dars va darsdan tashqari mashg'ulotlarda ekologik tushunchalarni singdirishning samarali usullari tahlil qilinadi. Maqolada o'yin texnologiyalari, ekskursiyalarning o'quvchilar ekologik tafakkurini rivojlantirishdagi o'rni asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: ekologiya, ekologik tarbiya, boshlang'ich sinf, ekologik madaniyat, ekologik ong, interfaol metodlar, tabiatni muhofaza qilish.

Boshlang'ich ta'lim har qanday ta'lim tizimining poydevori hisoblanadi. Aynan shu bosqichda bolalar ilmga bo'lgan qiziqish, mustaqil fikrlash, axloqiy me'yorlar va jamiyatda yashash qoidalari shakllana boshlaydi. Shu sababli boshlang'ich ta'lim sifatini oshirish-mamlakatning kelajagini mustahkamlash bilan barobar hisoblanadi.



International Congress on Economics, Management and Business Studies

Hosted Online from New York, USA

Date: 23rd June , 2026

Website: <https://econferencia.com>

O'quvchilarda ekologik tarbiyani shakllantirish. "Ekologiya,, tushunchasi ilk bor nemis zoologi E.Gekkel tomonidan qo'llanilgan. Ekologik tarbiya ijtimoiy tarbiyaning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi.

Ekologik tarbiya (grekcha "oikos"-turar joy,makon, "logos"-fan)-o'quvchilarga dastlabki ekologik bilimlarni berish, mavjud ekologik bilimlarni boyitish, ularda tabiat va atrof-muhit muhofazasini tashkil etish ko'nikma va malakalarni shakllantirishga qaratilgan pedagogik jarayondir. Boshlang'ich ta'lim tizimida ekologik tarbiya o'quvchilarning atrof-muhitga ongli munosabatini shakllantirishga qaratilgan muhim pedagogik jarayon hisoblanadi. Ekologik tarbiya jarayonida o'quvchilarga tabiat va jamiyat o'rtasidagi uzviy bog'liqlik, inson faoliyatining tabiatga ta'siri hamda ekologik muammolarning kelib chiqish sabablari tushuntiriladi.

Boshlang'ich sinf yoshidagi bolalarda ekologik bilimlarni shakllantirishda ularning psixologik xususiyatlari alohida ahamiyat kasb etadi. Shu sababli ta'lim jarayoni yosh psixologiyasi tamoyillariga tayangan holda tashkil etilishi lozim,ya'ni bolalarning aniq fikrlashi, hissiy qabul qilishi darajasi yuqori ekanligi inobatga olinib, ko'proq vizual va amaliy metodlardan foydalaniladi.

O'zbekiston Respublikasida tabiat va atrof-muhit muhofazasini tashkil etishga alohida e'tibor qaratilmoqda.Bu yo'lda amalga oshiriluvchi ijtimoiy-ekologik harakat mazmuni "O'zbekiston Respublikasining Atrof-muhitni muhofaza qilish milliy harakat rejasi"da o'z ifodasini topgan. O'quvchilarda tabiatga nisbatan to'g'ri munosabatni qaror toptirish,mehr-muhabbat uyg'otish, atrof-muhit musaffoligiga erishish ekologik muammolarni hal etish yo'lida muhim bosqich sanaladi.

Ekologik ta'lim o'quvchiga aniq maqsadga muvofiq, izchil, tizimli va uzluksiz ravishda nazariy ekologik bilimlarni berishga yo'naltirilgan ta'limiy jarayondir. Nazariy ekologik bilimlar (ekologik ong) hamda atrof-muhit va tabiat muhofazasi



International Congress on Economics, Management and Business Studies

Hosted Online from New York, USA

Date: 23rd June , 2026

Website: <https://econferencia.com>

yo'lida olib borilayotgan faoliyat birligi ekologik madaniyatni shakllantirishga xizmat qiladi. Ekologik ong tabiat va atrof-muhitning mavjud holati, ularni muhofaza etish borasidagi tushunchalarning ongdagi ifodasi bo'lib, u murakkab ijtimoiy- psixologik hodisa sifatida namoyon bo'ladi. Ekologik faoliyat esa ekologik bilimlarga tayanilgan holda tabiat va atrof-muhit muhofazasini ta'minlash borasida amalga oshirilayotgan xatti-harakatlar majmui demakdir.

Ekologik madaniyat o'quvchining ijtimoiy talablarga muvofiq tabiat va atrof-muhit muhofazasini tashkil etish qobiliyati.

Ekologik tarbiya ijtimoiy tarbiyaning yana bir muhim tarkibiy qismi bo'lib, uni tashkil etish jarayonida quyidagi vazifalar hal etilishi zarur:

1. O'quvchilarning ta'lim jarayonida o'zlashtirgan ekologik bilimlarini yanada oshirish.
2. Ularning tabiat va atrof-muhit ekologiyasi to'g'risidagi tasavvurini boyitish.
3. O'quvchilarda tabiat va atrof-muhit muhofazasini ta'minlash ijtimoiy zaruriyat ekanligi to'g'risidagi e'tiqodni shakllantirish.
4. O'quvchilarda ekologik faoliyat ko'nikma va malakalarni tarbiyalash hamda ularning tabiat va atrof-muhit muhofazasini ta'minlash jarayonida faol ishtirok etishlariga erishish.

Ekologik tarbiyani olib borish chog'ida-o'quvchilarga ekologik bilimlar berish asosida shaxs, jamiyat va tabiat birligi hamda aloqadorligini o'quvchilarga tushuntirish, ularda ekotizimning inson, insoniyat, jamiyat taraqqiyotidagi muhim o'rni va mohiyati borasidagi tushunchalarni qaror toptirish, tabiatga nisbatan ehtiyotkorona mas'uliyat bilan munosabatda bo'lish, tabiatni asrash to'g'risida g'amxo'rlik qilish kabi tuyg'ularni qaror toptirish, shuningdek, ekologik madaniyatni shakllantirish lozim.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari ko'proq ko'rish, eshitish va amaliy faoliyat orqali bilimni o'zlashtiradi. Shu sababli ekologik tarbiya jarayonida murakkab nazariy



International Congress on Economics, Management and Business Studies

Hosted Online from New York, USA

Date: 23rd June , 2026

Website: <https://econferencia.com>

tushunchalardan ko'ra oddiy, hayotiy misollar muhim ahamiyat kasb etadi. Masalan, daraxtlarning inson hayotidagi o'rni, suvning qadri, havoning tozaligi kabi tushunchalar sodda va tushunarli tarzda izohlanadi. Bu orqali bolalarda ekologik ong asta-sekin shakllanadi. Ekologik tarbiya faqat bilim berish bilan cheklanmaydi, balki bolalarda tabiatga nisbatan hissiy munosabatni ham rivojlantiradi. O'quvchi gullarga suv quyganida, daraxt ekkanida yoki hayvonlarga g'amxo'rlik qilganida unda mehr, mas'uliyat va ehtiyotkorlik kabi sifatlar paydo bo'ladi. Bu esa keyinchalik ekologik madaniyatning shakllanishiga olib keladi. Dars jarayonida ekologik tarbiyani shakllantirish uchun turli metodlardan foydalanish mumkin. O'qituvchi tabiatni kuzatish, oddiy tajribalar o'tkazish, rasmlar va ko'rgazmalar orqali tushuntirish kabi usullardan foydalansa, o'quvchilar mavzuni yaxshiroq anglaydi. Ayniqsa, o'yinlar va kichik loyihalar bolalar uchun juda qiziqarli bo'lib, ular orqali ekologik bilimlar mustahkamlanadi. Masalan, "tabiatni asraymiz", "toza maktab" kabi loyihalar o'quvchilarni faol ishtirok etishga undaydi.

Shuningdek, ekologik tarbiyada o'qituvchi bilan bir qatorda oila ham muhim rol o'ynaydi. Agar bola uyda suvni tejashni, chiqindini to'g'ri tashlashni, tabiatga zarar yetkazmaslikni o'rgansa, maktabda olgan bilimlari yanada mustahkamlanadi. Jamiyatda o'tkaziladigan ekologik tadbirlar ham bolalarning bu boradagi tushunchalarini boyitadi.

Hozirgi kunda ekologik muammolar, jumladan, havo ifloslanishi, suv tanqisligi va iqlim o'zgarishi tobora kuchayib bormoqda. Bu esa global iqlim o'zgarishi bilan bog'liq bo'lib, kelajak avlod uchun jiddiy xavf tug'diradi. Shu sababli ekologik tarbiyani erta yoshdan boshlash muhim hisoblanadi. O'quvchilarga bu muammolar oddiy va hayotiy misollar orqali tushuntirilsa, ular tabiatni asrash zarurligini chuqurroq anglaydi.



International Congress on Economics, Management and Business Studies

Hosted Online from New York, USA

Date: 23rd June , 2026

Website: <https://econferencia.com>

Oila va jamiyatda tashkil etilayotgan ekologik tarbiyaning suhbat, davra suhbat, ekskursiya, bahs-munozara, ijodiy tanlovlar, uchrashuv, ijtimoiy-foydali mehnat (shanbalik, hashar, ko'kalamzorlashtirish) kabi shakl hamda suhbat, kuzatish, amaliy faoliyatni tashkil etish, rag'batlantirish va jazolash kabi metodlar yordamida tashkil etish o'quvchilarda ekologik madaniyatni qaror qilib topishini ta'minlaydi.

O'quvchi tarbiyasida ishtirok etayotgan subyektlarning shaxsiy namunalari, o'quv manbalari, badiiy adabiyotlar, ommaviy axborot vositalari materiallari va ularning g'oyalari o'quvchilarda ekologik madaniyatni shakllantirishning muhim vositalari sanaladi.

Xulosa qilib aytganda, boshlang'ich sinflarda o'quvchilarda ekologik tarbiyani shakllantirish-bu ko'p bosqichli, tizimli va ilmiy asoslangan pedagogik jarayon bo'lib, u shaxsning intellektual, hissiy va amaliy faoliyatini bir butun holda rivojlantirishga qaratiladi. Ushbu jarayonning samaradorligi o'quvchilarda tabiat va jamiyat o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni anglash, ekologik muammolarga ongli munosabat bildirish hamda kundalik hayotda to'g'ri ekologik xulq-atvorni namoyon etish darajasi bilan belgilanadi. Boshlang'ich sinflarda ekologik tarbiya berish-bu jamiyatning barqaror rivojlanishiga xizmat qiluvchi, uzoq muddatli natijaga ega bo'lgan muhim pedagogik jarayondir. U orqali tabiatni asrashga qodir, ekologik jihatdan ongli va mas'uliyatli shaxslar tarbiyalanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.Yo'ldoshev O'. Didaktik prinsiplar tizimida tarixiylik-T.:Fan,2005.
- 2.Yo'ldoshev J. Hayot va tafakkur sayyorasi –T.:Fan, 1991.
- 3.Yo'ldoshev O'. Ta'lim nazariyasi asoslari.-T.:Fan ,2006.



International Congress on Economics, Management and Business Studies

Hosted Online from New York, USA

Date: 23rd June , 2026

Website: <https://econferencia.com>

-
4. B.X. Xodjayev „Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti “ pedagogika ta’lim sohasi bakalavriat ta’lim yo’nalishi uchun darslik „Sano-standart” nashriyoti Toshkent-2017
 5. O’J. Yo’ldoshev , A. Ziyayev , M. Yusupov vb „Umumiy pedagogika”.-T.: „Fan va texnologiya”, 2017
 6. V. Mavlonov „Neyrolingvistik dasturlashtirish texnologiyalari asosida o’quvchi-yoshlarda hushyorlik va ogohlik fazilatlarini rivojlantirish” , “Pedagogika “ TDPU2017/3
 7. Nurmatova M. „History Of Origin And Social And Social And Pedagogical Need Of Tutor’s Activity. International Bulletin of Applied Science and Technology, 3(2023):151-154.
 8. Nurmatova, M .O.Q. „Is’hoqxon Ibratning ilmi va ma’rifat sohasidagi xizmatlari.” Academic Research in Educational Sciences, 3. NUU Conference 2(2022)
 9. Нурматова ,М.О.К. „Психолого-педагогические особенности детей старшего дошкольного возраста.” Молодежь и XXI век(2015).
 10. Нурматова ,М., „Учитель-руководитель воспитание”. Актуальные научные исследования в современном мире,(2018)
 11. Нурматова М. ‘Произведение „Одоб вс-салихин,-настольная книга с вежливости и правил поведенияю”. Актуальные научные исследования в современном мире,(2018).